

TIJORAT BANKLARIDA ISTE‘MOL KREDITI BERISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

***Masharipov Baxrom Yusupbayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi magistranti***

Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanish sharoitida iste‘mol kreditini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining iste‘mol kreditlariga bo‘lgan ehtiyoji mavjud bo‘lib, unga ko‘ra kishilar o‘zlarining moliyaviy ehtiyojlarini hal qilish uchun bank tashkilotlariga murojaat qiladilar. Bu esa iste‘mol kreditlari bozorining o‘sishiga olib keladi. Shu bilan birga, banklar o‘rtasidagi raqobat sharoitida kredit tashkilotlari potensial mijozlarga qo‘yiladigan talablarni kamaytirishga e‘tibor qaratadilar. Bu esa iste‘mol kreditini olish shartlarini soddalashtirishga olib keladi.

Iste‘mol krediti - bank tomonidan shaxsiy, maishiy va boshqa noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar va xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kredit turi bo‘lib hisoblanadi. Bank talablariga javob beradigan har qanday mamlakat fuqarosi kredit olishi mumkin. Ko‘pgina banklarda iste‘mol krediti sifatida maqsadli bo‘lmagan naqd pul krediti qaraladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-33-son Qonuni [1] qabul qilinib, unga ko‘ra, iste‘mol krediti jismoniy shaxsga (iste‘molchiga) uning iste‘mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar va xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditdir bo‘lib hisoblanadi. Ushbu iste‘mol krediti - bank yoki boshqa kredit tashkiloti qarz oluvchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun qarz beradigan pul, ya‘ni maishiy texnika sotib olish yoki ta‘mirlash uchun to‘lash shaklidir. Iste‘mol krediti kredit turlaridan biri sifatida turli nuqtai nazardan: iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida hamda keng va tor ma‘noda ko‘rib chiqiladi [2].

Iste‘mol kreditlari avtokreditlar va ipoteka kreditlarini o‘z ichiga oladi. Ammo, ba‘zi banklar ularni alohida toifalarga ajratadilar. Iste‘mol krediti - ma‘lum bir vaqtda qarz oluvchining haqiqiy moliyaviy imkoniyatlaridan oshib ketadigan xarajatlarga ega bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun pul berish shaklidir [3]. Banklar iste‘molchilarni tahlil qilib, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kredit mahsulotlarini ishlab chiqadi. Ba‘zan, ular ma‘lum mijozlar uchun takliflar yaratadilar. Masalan, ushbu kredit tashkilotidagi hisobvaraqlarda ish haqini ushlab turadigan mijozlar xarajatlari va daromadlarini kuzatib boradilar va daromadni hisobga olgan holda kredit miqdori va shartini hisoblaydilar. Shularga asosan, iste‘mol kreditlari maqsadi, garov turi va shakli bo‘yicha farqlanadi.

Fikrimizcha, iste‘mol krediti - bankda beriladigan foiz krediti bo‘lib, u o‘z maqsadiga ega bo‘ladi va keng tarqalgan kredit turi bo‘lib hisoblanadi. Iste‘mol krediti maqsadli va maqsadsiz kabi turlarga bo‘linadi. Maqsadli kredit aniq tovarlarni sotib olish yoki xizmatni to‘lash uchun beriladi. Agar miqdor kichik bo‘lsa, iste‘mol krediti soddalashtirilgan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladi.

Maqsadli kredit bilan pul aniq maqsadlar uchun beriladi. Maqsadsiz kredit esa har qanday maqsadda berilib, pul-kredit plastik kartaga o‘tkaziladi yoki naqd pul shaklida beriladi. Bankni xatarlari yuqori bo‘ladi, shu bois shartlar maqsadli kreditga qaraganda kamroq sodiq bo‘ladi, ya’ni foiz stavkasi yuqori va miqdori kamroq bo‘ladi.

Xarajatlarni tasdiqlash uchun cheklarni taqdim etish lozim. Ushbu kredit qisqa muddatga, ya’ni bir yilgacha kichik miqdorda va yuqori foizlarda beriladi. Ammo, turli banklar uni berish shartlarini belgilashlari mumkin. Agar iste’mol krediti miqdori katta bo‘lsa, bank garovni talab qiladi. Masalan, qarz oluvchi qarzni to‘lamagan taqdirda, mulk bankka o‘tadi. Majburiyatlarni ta’minlashning yana bir usuli kafillik hisoblanib, unga ko‘ra kafil bankka qarz oluvchining qarzni to‘lashini kafolatlaydi. Iste’mol krediti turli tashkilotlarga murojaat qilib, eng qulay shartlarni tanlash mumkinligi, qarz oluvchilarga qo‘yiladigan talablarning boshqa kredit turlariga qaraganda sodiqligi hamda qarzni jarimasiz muddatidan oldin to‘lash mumkinligi kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Iste’mol krediti qisqa muddatga, xususan: ko‘pincha bir yilgacha beriladi. Uni rasmiylashtirish boshqa kredit turlariga qaraganda osonroq bo‘lib, uni muddatidan oldin to‘lash mumkin bo‘ladi.

Iste’mol kreditini olish bankni tanlash, murojaat qilish, hujjatlarni to‘plash va qarorni kutish va shartnomani imzolash kabi bosqichlarga bo‘linadi. Ushbu kreditini olishda qarz oluvchi va kreditor tomonlar huquqlari va majburiyatlari, shuningdek kredit shartlari, jumladan uni to‘lashni batafsil belgilaydigan shartnoma tuzadilar. Iste’mol krediti to‘lovi qarz va foizlar kabi qismlarga bo‘linadi. Tarkibiga qarab, to‘lovlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- annuitet. Bu to‘lovlarni hisoblashning eng mashhur usuli bo‘lib, qarz oluvchi har oy qarzni bir xil miqdorda to‘laydi. To‘lov miqdori o‘zgarishsiz qoladi, ammo uning tarkibi o‘zgaradi: avval qarz oluvchi foizlarni to‘laydi va qarz miqdori esa deyarli kamaymaydi. Asta-sekin nisbat tenglashadi. Bunday kredit uchun ortiqcha to‘lov yuqori bo‘ladi.

- farqlangan. Ushbu usul bilan qarz oluvchi katta to‘lovlarni amalga oshiradi, ammo har oy miqdori kamayadi. Buning aksi esa to‘lovning asosiy qismi qarz bo‘lib sanaladi. Kreditni to‘lash muddati davomida u teng qismlarga bo‘linib, foizlar balansga qo‘shiladi. Ortiqcha to‘lov kamroq bo‘ladi.

Iste’mol krediti har qanday maqsadni amalga oshirishga imkon beradi va universal kredit bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pincha jismoniy shaxslar iste’mol kreditini olish orqali quyidagi muammolarni hal qiladilar:

- maishiy texnika va elektronika jihozlarni sotib olish;
- kvartira yoki uy-joylarni ta’mirlash;
- avtomobil sotib olish;
- ta’tilda sayohatga chiqish;
- tibbiy xizmatlardan foydalanish;
- qayta moliyalashtirishni amalga oshirish;
- to‘y va boshqa bayramlarni o‘tkazish;

- ta'lim xizmatlariga to'lov qilish.

Shuningdek, kishilar iste'mol krediti oladigan holatlarda bir qator holatlar kuzatiladi. Jumladan, qo'shimcha mablag'larni jalb qilish zarur bo'lganda kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Qimmat davolanish uchun qo'shimcha pul zarur bo'ladi. Iste'mol kreditini olishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- to'lovlar miqdori;
- to'lovlar jadvali;
- komissiyalar miqdori;
- bank huquqlari;
- qayta moliyalashtirish.

Xulosa shuki, iste'mol krediti mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va banklar istiqboli uchun ustuvor masala bo'lib qaraladi. Iste'mol kreditiga bo'lgan talabning oshishi ro'yxatdan o'tishning soddaligi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu turdagi kreditlar bank muassasalari uchun asosiy ish yo'nalishi bo'lib ham hisoblanadi. Iste'mol krediti iqtisodiy bozorning alohida sohasi bo'lib, unda kredit resurslarini bank tashkilotlari, jismoniy shaxslar va ushbu sohaga tegishli tashkilotlar o'rtasida tezkorlik va to'lov shartlarida qayta taqsimlashga qaratilgan turli operatsiyalar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlar uchun mablag'larni moliyaviy tashkilotlar va kredit kooperativlaridan ham olish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-maydagi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi O'RQ-33-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/1004687>
2. Комиссарова М.В., Даниленко С.А. Банковское потребительское кредитование. Учебно-практическое пособие. - М.: Юстицинформ, 2011. - с. 11. ISBN 978-5-7205-1092-3.
3. Лаптева Е.В. Кредитование физических лиц в Российской Федерации: статистический аспект и прогнозирование. – Волгоград: Изд-во «Сфера», 2022. - с. 14.

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOTNING EVOLYUTSIYASI

Mirzayev Dilshod Aminovich,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, PhD.*

Utkurov Javohirxon Baxodir o'g'li,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyalar" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi*

Ko'p yillar davomida XMHdan foydalanishning amaliyoti shuni ko'rsatadiki iqtisodiy sohadagi uzoq muddatli (davomli) jarayon sifatida tavsiflaydi. Shu sababli ushbu jarayonni tizimli ko'rib chiqish uning rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlarni ham o'z ichiga oladi. Tarixiy usulning funktsional texnikasi ko'rib chiqilayotgan jarayonning rivojlanish bosqichlarini (davrlarini) aniqlashni o'z